

**KRISTOFOR MARLONING “BUYUK TEMURLANG” ASARIDA TEMUR OBRAZINI
YARATISHDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO’QIMA UYG’UNLIGI**

Pulatova Sabina Sharifovna

BUXDPI, Xorijiy tillar kafedrası o’qituvchisi.

Safarova Mohinur Anvar qizi

BUXDPI, Xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi II bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk ingliz dramaturgi Kristofor Marloning “Buyuk Temurlang” asarida tarixiy haqiqat va badiiy to’qima uyg’unligi, shuningdek, yozuvchining tarixiy haqiqatga to’g’ri kelmaydigan badiiy to’qimalardan foydalanish sabablari ko’rsatib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *Amir Temur, tragediya, badiiy to’qima va tarixiy haqiqat, tarixiy davr, uyg’unlik*

**THE CORRELATION OF HISTORICAL TRUTH AND FICTION IN CHRISTOPHER
MARLOWE’S “TAMBURLAINE THE GREAT”**

Pulatova Sabina Sharifovna

A teacher of Foreign Languages Department

Pedagogical Institute of Bukhara State University, Uzbekistan.

Safarova Mohinur Anvar qizi

a 2nd year student of Pedagogical Institute of Bukhara State University, Uzbekistan

Abstract: *The article deals with the correlation of the real facts and fiction in “Tamburlaine the Great” by Christopher Marlowe.*

Keywords: *correlation, historical truth, fiction, tragedy, contradiction, historical period.*

KIRISH

Tarixdan ma’lumki, Yevropaning yetuk olimlari, yozuvchi—allomalari Amir Temur shaxsiyatiga, hukmdorlik faoliyatiga katta qiziqish bilan qaraganlar. Perrodina, De Sankso, Desa Krua, De Margaf, Nev, J.Kalyu, E.Gomlios, I.Lengle, N.Vamberri kabi yevropalik tarixchilar Temuriylar davriga oid noyob qo’lyozmalarni o’rganib, o’z tillariga tarjima qilganlar.

Amir Temur haqida asar yozgan G’arb ijodkorlari orasida, ingliz Uyg’onish davrining yetakchi namoyondalaridan biri, o’tkir qalam sohibi, sermahsul dramaturg va shoir, qirolicha Yelizaveta Tyudorning rahnamoligida Oksford va Kembridj universitetlarida tahsil olgan va o’z davrida “Universitet bilimdonlari” (“University Wits”) dan biri Kristofer Marloning alohida o’rni bor. Garchi Kristofer Marlo Amir Temur hayotini talqin etgan,

ushbu asarni 1590- yili nashr ettirgan bo'lsa-da, tragediya bir necha asrlardan buyon dunyoning eng mashhur teatr sahnalarida ko'plab tomoshabinlarning istak va xohishlariga binoan takror va takror sahnalashtirilib kelinishi, asarda ilgari surilgan Uyg'onish davri g'oyalari bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini va ahamiyatini yo'qotmaganidan dalolat beradi.

Ingliz Uyg'onish davri adabiyotining eng sermahsul va ko'zga ko'ringan ijodkorlaridan biri Kristofor Marlo - o'zining qisqa, ammo muzmunga to'la hayoti davomida bir qancha sahna asarlari yaratib, jahon adabiyotida ham o'chmas iz qoldirdi. Marlo qisqa ijodiy faoliyati davomida bir necha asarlar yozishga ulgurdi: "Jew of Malta" ("Maltalik yahudiy"), "Edward II" ("Eduard ikkinchi"), "The Massacre at Paris" ("Parij qirg'ini"), "The tragedy of Doctor Faustus", "Tamburlaine the Great" ("Buyuk Temurlang"). Marloning London sahnasida qo'yilgan birinchi mashhur pyesasi 1587-yilda istilochi Temurning hikoyasi "Tamburlaine the Great" edi.¹¹⁷ U yozgan "Buyuk Temurlang" tragediyasi jahon adabiyotida bizning ulug' bobokalonimiz, buyuk sarkarda Amir Temur to'g'risidagi ilk asar desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ammo, biz bu asarni to'liq tarixiy haqiqatlarga mos keladi deb ta'kidlay olmaymiz. Nega deganda, asarning ilk sahnalridanoq, shunga guvoh bo'lishimiz mumkinki, haqiqiy Sohibqiron Amir Temur turkiy mo'g'ullardan bo'lgan va zodagonlarga mansub bo'lsa-da, Kristofor Marlo dramatik maqsadlarda uni imperator darajasiga ko'tarilgan skif qabilasidan chiqqan cho'pon sifatida tasvirlaydi. Kristofor Marlo fojeasida badiiy to'qima ruhi ustun bo'lsa-da, undagi bosh qahramon iroda kuchi, favqulodda shiddati bilan hayot haqiqatiga hamohangdir.

Asar muqaddimasida muallif tomoshabinlarga murojaat etib, *"qilichi saltanat va hukmdorlarni jazolaydigan Temurlang"* haqida hikoya qilishini ma'lum qiladi va bu obraz kishilarning qalbi va shuurini jumbushga solishiga umid qiladi. Birinchi qismning ilk pardasi fors hukmdori Miket dargohidagi muloqot bilan ochilgan. Eron podshosi sarkarda Meandrdan "savdogarlarga tajovuz qiladigan skif o'g'risi Temurlang"¹¹⁸ haqida gapirib berishini so'raydi. Meandr shoh so'rog'iga javoban Temur Eron zaminida har kun qonunsiz bosqinlar qilayotgani, u Osiyoni egallab, Sharq hukmdori bo'lishga intilayotganligi haqida so'zlaydi. Podshoh ham, uning yaqinlari ham o'z kuchlariga ortiqcha baho berib, g'alaba qilishlariga ishonadilar. Bu sahnada Meandrning hokimiyatparast ukasi Xusravning akasini irodasizlikda ayblab, unga qarshi chiqishi, saroy a'yonlarining shohdan voz kechib, Xusravga ishonch bildirishlari ham tasvirlangan.

Fojianing ikkinchi pardasida fors lashkarboshisi Menafon Xusravga Temurni ta'riflab berar ekan, uni *"baland bo'yli, adl qomatli, zuvalasi pishiq, Atlant kabi butun dunyoni ko'tarishga qodir keng yelkali, ko'zi ikki afsunli oyna misoli... uning qudrati va himmati jahonga hukmron bo'lishidan dalolat beradi"*, deb e'tirof etadi. Shunday qilib, fojianing ilk sahnalaridayoq, bosh qahramon ijodkorning yuksak idealiga muvofiq aqlan va jisman

¹¹⁷ The editors of encyclopedia Britannica

¹¹⁸ Christopher Marlowe. "Tamburlaine The Great" Part 1, Moscow-2010. Pp-142

barkamol ekani ma'lum bo'ladi. U eng og'ir va tengsiz janglarda ham o'zini yo'qotib, vahimaga tushmaydi, o'tkir sarkardalik va notiqlik mahoratini ishga solib, har safar g'olib chiqaveradi. Shu bilan birga, muallif qahramonini haddan ziyod ortiq ijobiylashtirib, ideallashtirmaydi. Fojiada Temur o'z davri va muhitining farzandi sifatida faoliyat olib boradi. Dastlab Miketga qarshi urush olib borayotganda, toj-u taxt gadosi Xusrav bilan bitim tuzadi. Eron shohi jangda yengiladi. Xusrav bu g'alabani o'z nomiga nomlab, Temurni noibim, deb ataydi. Shundan so'ng Temur unga qarshi qo'shin tortadi va Eronni qo'lga kiritadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur nega aynan Yevropada "Temurlang" nomi bilan atalgan? Agar o'tmishga nazar soladigan bo'lsak, Amir Temur yoshligida janglarda olgan jarohatlari tufayli sezilarli darajada nogiron bo'lib qolgan: ikki barmog'idan ayrilgan va o'ng oyog'i nogiron bo'lib qolgan. Turk tilida u Temur Lang, ya'ni Lang(cho'loq) nomi bilan tanilgan va u Yevropaga Temurlang yoki Tamburlaine nomlari bilan atalgan. Va 1941-yilda rus arxeologlari Temur qabrini ochib, uning jarohatlari borligini tasdiqladilar.¹¹⁹ Amir Temur bobomizning qariyb yarim asr davomida ana shunday jismoniy nuqsonlari bilan qo'shinlarni va xalqlarni muvaffaqiyatli boshqara olgani butun dunyoni hayratga solgan.

Endi ushbu tragediyaning badiiy to'qimalarga asoslangan sahnalarini va nega yozuvchi ko'proq badiiy to'qimaga tayanganini ko'rib chiqsak.

Ikkinchi sahnada, biz qudratli Temur bilan yuzma-yuz kelamiz. "Dahshatli Misr sultonining qizi", asira Zenokrata Temurga murojaat etar ekan, uni "cho'pon" deb ataydi. Marlo Amir Temurni da'atan oddiy cho'pon sifatida sahnaga olib chiqadi. Bu tarixiy haqiqatga zid. Umuman olganda, forsiyzabon manbalar jahongirning yoshligi haqida aniq ma'lumot bermaydi. Bu borada ilk ma'lumotni Ibn Arabshoh asarida uchratamiz. Uning fikricha, Temurning otasi yo cho'pon, yo temirchi bo'lgan. "Nikon solnomasi" ning ma'lumot berishicha, Temurning otasi qishloq oqsoqoli bo'lib, kasbi temirchi bo'lgan. "1512-yilnomasi", Temur oqsoq haqida qissa"da ham shu ma'lumotlar keltiriladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, shunisi e'tiborga loyiqki, turli vaziyatlarda Temurlang o'zini "cho'pon" deb ataydi. Bu qahramonning o'zining past mavqeidan oshib, yuqori maqomga erishish qobiliyatini tasdiqlashi mumkin. Bu misolda fojia qahramoni Temurlang umrining oxirida ham Xudoga iltijo qilmaydi, balki merosxo'rlariga urush harakatlarini davom ettirishni buyuradi. Bu o'g'illaridan tinchlikni saqlashni so'ragan Amir Temur obraziga to'g'ri kelmaydi. 2-qismda Temurlang qo'shni shohliklarga hujum qilishda davom etar ekan, o'g'illariga uning ortidan g'olib bo'lishni vasiyat qiladi. Ammo haqiqiy hayotda Temurlang o'g'illariga mamlakatda tinchlikni saqlashni va qo'shni qirolliklarga hujum qilmaslikni vasiyat qilgan. Amir Temur Zenokratani sevadi, o'g'illarini o'ziga munosib merosxo'rlar qilib o'stirish uchun ularning tarbiyasiga, o'sishiga katta e'tibor beradi, o'z sodiq sarkardalariga ishonadi, ularni xizmatlariga mos ravishda rag'batlantiradi. Shuningdek, unga qarshi turgan

¹¹⁹ ElizabethanDrama.org, The Annotated Popular Edition.

odamlar Bobilga yetib borganida, Temurlang yana g'ayrioddiy vahshiylik harakatlarini namoyish etadi. Shahar gubernatori shahar xazinasini oshkor qilish evaziga uning hayotini saqlab qolishga harakat qilganda, Temurlang uni shahar devorlariga osib qo'ydi va odamlariga uni otib o'ldirishni buyurdi. U aholini - erkaklar, ayollar va bolalarni bog'lab, yaqin atrofdagi ko'lga tashlashni buyuradi. Lekin aslida Amir Temur begunoh kishilarni aslo o'ldirmagan. Nihoyat, Temurlang Qur'on nusxasini masxara bilan yoqib yuboradi va o'zini Xudodan buyukroq deb da'vo qiladi. Yakuniy sahnada u kasal bo'lib qoldi, lekin o'limidan oldin yana bir dushmani mag'lub etishga muvaffaq bo'ldi. U hayotni tark etar ekan, qolgan o'g'illariga yerning qolgan qismini zabt etishni buyuradi.

Amir Temur obrazining bu qadar tarixiy haqiqatlarga zid tarzda berilish sabablarini ikkiga bo'lishimiz mumkin: birinchi sabab G'arblik muarrixlar tomonidan Temur hayotiga oid ma'lumotlarning buzib berilishi bo'lsa, ikkinchi sabab K.Marloning ijodkorlik dunyoqarashi, hayot haqidagi nuqtai nazari. Ya'ni, fojea ibtidosida ta'kidlangan Temurning isyonkorligi va fidoiyligi Marloga ming yillik hayot qurilishining illat va xurofotlaridan xalos bo'lgan yangi insonning tafakkur va irodasini o'z qahramoniga singdirish, feodal qurilma, diniy itoatkorlikdan chekinish, bir so'z bilan aytganda, Temur tilidan o'zining shaxsiy dasturini ifoda etishga imkon berdi. Yuqoridagi farqlar muallifning illyuziyasi natijasi emas. Marlo o'z asarini o'sha davrning tarixiy manbalari asosida yaratgan. Ammo XVI asrda G'arb sharqshunoslari Temurlangni kambag'al oiladan, deb o'ylashgan va hamma narsaga uning sabri va e'tiqodi tufayli erishgan. Marlo aslida tarixiy faktlarga asoslangan asar yaratmoqchi bo'lishi mumkin edi, lekin o'sha davr tarixiy manbalaridan noto'g'ri ma'lumotlar qo'llangani uchun tasvir yanada hayoliylashib ketgan. . Darhaqiqat, Marloning "Buyuk Temurlang" asarining haqiqiy Amir Temur (Temur)dan farqi katta, ammo muallifning o'zi ataylab haqiqiy erkak hayoti va uning xatti-harakatlarini salbiy bo'rttirib ko'rsatmoqchi bo'lgan deyish noto'g'ri. Asarni o'qigan kishi Marlo o'z qahramonini real hayot va haqiqiy tarixiy shaxs asosida yaratmoqchi bo'lgan degan xulosaga keladi. Ammo XVI asrda G'arb sharqshunoslari noto'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lib, tarixiy shaxs Amir Temur haqidagi real faktlardan to'liq xabardor emas edilar. Marlo esa o'sha davrning tarixiy manbalariga tayanib o'z asarini yaratgan. Shuning uchun uning qahramoni haqiqiy tarixiy shaxsdan farq qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz lozimki Sharafiddin Ali Yazdiy ta'kidlaganidek, "Amir Temur adolatni nixoyatda yaxshi ko'rardi, shu sababli ham uning saltanatida birorta inson behuda ranjitilmagan, zulm ko'rmagan. U ilm-fanni ham, ilm ahlini ham hurmat qilar, eng ezgu maksadi esa butun saltanatida madaniyat va san'at ning gurkirab yashnashiga erishish edi. Uning olijanoblighi bisyor va bisyor hollarda namoyon bo'lmishkim, ular haqida so'ylab o'tirishning o'rni emasdir." Ha, albatta, buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur haqida yozilgan bir qancha asarlarni uchratish mumkin. Ammo Kristofor Morloning "Buyuk Temurlang" asari o'zining badiiy pishiqligi, siyosiy muammolarni to'g'ridan-to'g'ri ko'rsata olishi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Garchan asarda badiiy to'qima ruhi ustun bo'lsa-da bu asarning mukammaligiga putur yetkazmagan, o'sha davr siyosiy

muammolarini ochib bergan. Muallif ko'pgina chet el manbalaridan fodalangani sababli, unda badiiy to'qima tarixiy haqiqatdan ustunroq. Ammo bu degani asarda tarixiy faktlar uchramaydi degani emas. Zero, bu tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligida yozilgan shoh asar desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shuning uchun ham, ushbu ijod namunasi yillar davomida yashab kelmoqda; insonlarga tarixdan saboq olib yashashga undamoqda; Amir Temurning qanchalik buyuk hukmdor ekanligiga kishilarni yana bir bor ishontirmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Christopher Marlowe. Tamburlaine the Great. Moscow-2010.
2. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. Tashkent-1999, 6-bet.
3. Mixail Ivanin. Ikki buyuk sarkarda. Toshkent- 1994, 5-bet.